BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

# BUXORO VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI



**2024-yil yanvar-mart**

# BUXORO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

*2024- yil 1- aprel holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

***Demografiya statistikasi** – ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo'lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlari joylashuvi va takror hosil bo'lishi bilan bog'liq ma'lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig'ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug'ullanadi;*

*Buxoro viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga doimiy aholi soni **2 050,6 ming kishi**ni tashkil etib, yil boshigan **6,6 ming kishi**ga yoki **0,3 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **756,4 ming kishi**ni (jami aholi sonidagi ulushi **36,9 %**), qishloq aholisi soni **1 294,2 ming kishi (63,1 %)**ni tashkil etdi.*




***Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turgan, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi;*

**Doimiy aholi soni**

**2 050,6** *ming kishi*

**Tabiiy o‘sish**

**+7,4** *ming kishi*

## Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil 1-aprel holatiga*

**Shahar**



**36,9%**

**Qishloq**



**63,1%**

## Doimiy aholi soning taqsimlanishi

*2024- yil 1- aprel holatiga*



**Erkaklar**

**50,1%**

**1 028,2** *ming kishi*

**Ayollar**

**49,9%**

**1 022,4** *ming kishi*



## Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni

*2024- yil 1- aprel holatiga*

**Hududlar kesimida doimiy aholi soni,** *ming kishi*




Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p G‘ijduvon tumanida **323,6** ming kishi, Buxoro shahrida **296,0** ming kishi, Shofirkon tumanida **186,7** ming kishi, eng kam aholi soni Qorovulbozor tumanida **20,0** ming kishi, Kogon shahrida **64,9** ming kishi va Kogon tumanida **85,0** ming kishini tashkil etgan.

**Doimiy aholisi soni eng ko‘p bo‘lgan** *shahar/shaharchalar*

| | |
|---|---|
| Buxoro sh. | 270,9 |
| Kogon sh. | 64,9 |
| G‘ijduvon sh. | 50,6 |
| Qorako‘l sh. | 25,9 |
| Vobkent sh. | 20,7 |

Doimiy aholisi soni eng ko‘p Buxoro shahrida **270,9** ming kishi, Kogon shahrida **64,9** ming kishi, G‘ijduvon shahrida **50,6** ming kishi, Qorako‘l shahrida esa **25,9** ming kishi va Vobkent shahrida **20,7** ming kishini tashkil etgan.

**Doimiy aholisi soni eng kam bo‘lgan** *shahar/shaharchalar*

| | |
|---|---|
| O‘zbekiston sh-cha | 2,5 |
| Qirtay sh-cha | 2,5 |
| Mahallai-Mirishkor sh-cha | 2,5 |
| G‘ulomte sh-cha | 2,6 |
| Kosari sh-cha | 2,6 |

Doimiy aholisi soni eng kam O‘zbekiston shaharchasida **2,5** ming kishi, Qirtay shaharchasida **2,5** ming kishi, Mahallai-Mirishkor shaharchasida **2,5** ming kishi, G‘ulomte shaharchasida **2,6** ming kishi va Kosari shaharchasida esa **2,6** ming kishini tashkil etgan.

## Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

*2023- yilda*




2024-yilning 1-yanvar holatiga Buxoro viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **76,8** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **75,2** yoshga, ayollar uchun esa **78,5** yoshga teng. Shahar joylarida **76,1** yoshni va qishloq joylarida **76,9** yoshni kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi tashkil etgan.

***Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi** – tug‘ilgan (0 yoshdagi) insonlarning kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish yillari soni. Bunda ushbu ko‘rsatkich hisoblangan yildagi yoshlar bo‘yicha o‘lim darajasi saqlanib qoladi deb hisoblanadi;*

## Aholi sonining yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil 1- yanvar holatiga*




2024- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, viloyat doimiy aholisi sonining **29,5** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,4** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,1** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

***Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni** – Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan*

*katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi);*

## Buxoro viloyati bo'yicha aholi zichligi

*2024- yil 1- aprel holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi*




Buxoro viloyatida 2024- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **51,0** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,9** kishiga ortgan (*2023- yilda 1 kv.km.ga 50,1 kishi*).

Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahrida **4 063,1** kishi, Kogon shahrida **4 228,0** kishi, Vobkent tumanida **511,7** kishi, Kogon tumanida **168,6** kishini, Buxoro tumanida **135,6** kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Qorovulbozor tumanida **9,1** kishi, Peshku tumanida **15,1** kishi, Qorako'l tumanida **19,8** kishi, Olot tumanida **32,4** kishi, Jondor tumanida **36,0** kishi, Shofirkon tumanida **50,2** kishini tashkil etgan.

***Aholi zichligi*** *– muayyan hududdagi doimiy aholining umumiy sonini shu hudud maydoniga nisbati orqali aniqlanadi;*

---

## Buxoro viloyati hududlari bo'yicha qayd etilgan tug'ilishlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti**, *kishi*




Hududlar bo'yicha tug'ilish eng yuqori Buxoro shahrida **1 804** kishi, G'ijduvon tumanida **1 662** kishi, Jondor tumanida **842** kishi, eng kam ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida **73** kishi, Kogon shahrida **272** kishi va Kogon tumanida **450** kishini tashkil etgan.

**Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori bo'lgan** *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Buxoro sh. | 24,6 ‰ |
| Kogon | 21,4 ‰ |
| Vobkent | 20,8 ‰ |
| G'ijduvon | 20,7 ‰ |
| Olot | 18,9 ‰ |

Tug'ilish koeffitsiyenti eng yuqori Buxoro shahrida **24,6** promille, Kogon tumanida **21,4** promille, Vobkent tumanida **20,8** promille, G'ijduvon tumanida **20,7** promille va Olot tumanida **18,9** promilleni tashkil etgan.

**Tug'ilish koeffitsiyenti eng past bo'lgan** *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Shofirkon | 12,7 ‰ |
| Romitan | 12,7 ‰ |
| Peshku | 14,5 ‰ |
| Qorovulbozor | 14,7 ‰ |
| Kogon sh. | 18,7 ‰ |

Tug'ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Shofirkon va Romitan tumanlarida **12,7** promille, Peshku tumanida **14,5** promille, Qorovulbozor tumanida **14,7** promille va Kogon shahrida **18,7** promilleni tashkil

## Buxoro viloyatida tirik tug'ilganlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Yillar bo'yicha taqsimlanishi,** *ming kishi*




**O'sish sur'ati,** *% da*




**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

**O'g'il bolalar** — **Qiz bolalar**



*51,6 %*

*48,4 %*



**4,9** *ming kishi*

**4,6** *ming kishi*

**Shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi**

**Shahar** — **Qishloq**



*42,1 %*

*57,9 %*



**4,0** *ming kishi*

**5,5** *ming kishi*

2024- yil yanvar-mart oylarida tirik tug'ilganlar soni **9,5** ming kishini tashkil etdi, shundan o'g'il bolalar soni **4,9** ming kishini, qiz bolalar soni **4,6** ming kishi, tug'ilganlar soni shahar joylarida **4,0** ming kishini, qishloq

**Oylar bo'yicha taqsimlanishi,** *kishi/ulushi*

**O'g'il bolalar** — **Qiz bolalar**

**Yanvar**



*51,0 %* — *49,0 %*



**1 754** — **1 685**

**Fevral**



*51,9 %* — *48,1%*



**1 545** — **1 431**

**Mart**



*51,3 %* — *48,7 %*



**1 587** — **1 507**

Hisobot choragida eng ko'p qayd etilgan tug'ilishlar soni yanvar oyida qayd etilgan **3 439** nafar bo'lib, aksincha, eng kam tug'ilishlar esa fevral oyida 2 976 nafar qayd etilgan.

## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-mart*




2024- yilning yanvar - mart oylarida qayd etilgan egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi: 1 nafar tug‘ilganlar **97,2 %** ni 2 nafar egizak tug‘ilganlar **2,7 %** ni 3 nafar va undan ortiq egizak tug‘ilganlar **0,1 %** ni tashkil etdi.

## Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-mart*




2024- yil yanvar-mart oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **11,4** % chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **83,1** % ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **5,5** % chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **37,1** % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **61,6** % ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **1,3** % chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

# Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

*2024- yil yanvar-mart*

### Hududlar kesimida o‘limlar soni va koeffitsiyenti, *kishi*




Hududlar bo‘yicha vafot etishi eng yuqori Buxoro shahrida **357** kishi, G‘ijduvon tumanida **333** kishi, Shofirkon tumatida **198** kishi va Qorako‘l tumanida **191** kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **12** kishi, Kogon shahrida **82** kishi va Olot tumanida **100** kishini tashkil etgan.

### O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*




O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan Kogon shahrida **5,1** promille, Buxoro shahri va Kogon tumanida **4,9** promille, Qorako‘l tumanida **4,5** promille, Shofirkon tumanida **4,3** promilleni tashkil etgan.

### O‘lim koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*




O‘lim koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Qorovulbozor tumanida **2,4** promille, Romitan tumanida **3,1** promille, Buxoro tumanida **3,7** promille, Vobkent va Olot tumanlarida **3,8** promilleni tashkil etgan.

# Buxoro viloyati bo‘yicha qayd etilgan o‘limlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,** *ming kishi*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

**Erkaklar**



***52,4** %*

**1,1**

*ming kishi*

**Ayollar**



***47,6** %*

**1,0**

*ming kishi*

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**

**Shahar**



***47,6** %*

**1,0**

*ming kishi*

**Qishloq**



***52,4** %*

**1,1**

*ming kishi*

2024- yil yanvar-mart oylarida vafot etganlar soni **2,1** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **1,1** ming kishini, ayollar soni **1,0** ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida **1,0** ming kishini, qishloq joylarida **1,1** ming kishini tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,** *kishi/ulushi*

**Erkaklar** | **Ayollar**

**Yanvar**



***54,1** %*

**360**



***45,9** %*

**306**

**Fevral**



***53,6** %*

**407**



***46,4** %*

**353**

**Mart**



***53,6** %*

**368**



***46,4** %*

**318**

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan vafot etganlar soni fevral oyida qayd etilgan **760** nafar bo‘lib, aksincha, eng kam vafot etganlar esa yanvar oyida **666** nafar qayd etilgan.

## O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-mart, kishi*

***O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari;*







2024- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **65,9** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,4** % i – o‘simtalardan, **6,0** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **5,0** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **2,7** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **0,8** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **9,2** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## Buxoro viloyati hududlarida qayd etilgan nikohlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti**, *birlik*




Hududlar bo‘yicha nikohlar soni eng yuqori Buxoro shahrida **426** kishi, G‘ijduvon tumanida **391** kishi, Jondor tumanida **376** kishi, eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **20** kishi, Kogon shahrida **75** kishi va Kogon tumanida **138** kishini tashkil etgan.

**Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

- Jondor — **8,1 ‰**
- Olot — **7,4 ‰**
- Buxoro — **7,3 ‰**
- Peshku — **7,0 ‰**
- Romitan — **6,6 ‰**

Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Jondor tumanida **8,1** promille, Olot tumanida **7,4** promille, Buxoro tumanida **7,3** promille, Peshku tumanida **7,0** promille va Romitan tumanida **6,6** promilleni tashkil etgan.

**Nikoh koeffitsiyenti eng past bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

- Qorovulbozor — **4,0‰**
- Kogon sh. — **4,7 ‰**
- G‘ijduvon — **4,9 ‰**
- Shofirkon — **5,4 ‰**
- Buxoro sh. — **5,8 ‰**

Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **4,0** promille, Kogon shahrida **4,7** promille, G‘ijduvon tumanida **4,9** promille, Shofirkon tumanida **5,4** promille va Buxoro shahrida **5,8** promilleni tashkil etgan.

# Buxoro viloyatida qayd etilgan nikohlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming birlik*




**O‘sish sur’ati,**
*% da*




2024- yil yanvar-mart oylarida qayd etilgan nikohlar soni 3,2 ming birlikni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 birlikka kamaygan. Har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan hamda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi kuzatildi.

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yil yanvar-mart oylarida nikoh qurganlarning soni **3,2** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **1,2** mingtani **(37,5 %)**, qishloq joylarida **2,0** mingtani **(62,5 %)** tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*birlik/ulushi*




Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan nikoh qurganlar soni yanvar oyida **1 246** nafar aksincha, eng kam nikoh qurganlar esa mart oyida **901** nafarni tashkil etgan.

# Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti**, *birlik*




Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlarning soni eng yuqori Buxoro shahrida **140** kishi, G‘ijduvon tumanida **89** kishi, Buxoro tumanida **49** kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **7** kishi, Romitan tumanida **21** kishi va Kogon shahrida **30** kishini tashkil etgan.

**Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Buxoro sh. | 1,9 ‰ |
| Kogon sh. | 1,9 ‰ |
| Kogon | 1,7 ‰ |
| Qorovulbozor | 1,4 ‰ |
| Olot | 1,3 ‰ |

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Buxoro va Kogon shaharlarida **1,9** promille, Kogon tumanida **1,7** promille, Qorovulbozor tumanida **1,4** promille, Olot tumanida **1,3** promilleni tashkil etgan.

**Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan** *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Romitan | 0,6 ‰ |
| Qorako‘l | 0,8 ‰ |
| Jondor | 0,8 ‰ |
| Shofirkon | 0,9 ‰ |
| Vobkent | 1,1 ‰ |

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan Romitan tumanida **0,6** promille, Qorako‘l va Jondor tumanlarida **0,8** promille, Shofirkon tumanida **0,9** promille va Vobkent tumanida **1,1** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,** *ming birlik*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




2024- yil yanvar-mart oylarida **0,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,1 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-mart oylarida 1,3 promille bo‘lgan).

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**




2024- yil yanvar-mart oylarida nikohdan ajralishlarn soni **0,6** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **0,3** mingtani, **(50,0 %)**, qishloq joylarida **0,3** mingtani **(50,0 %)** tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,** *birlik/ulushi*




Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni fevral oyida **217** nafar aksincha, eng kam nikohdan ajralishlar esa mart oyida **98** nafarni tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2024- yil yanvar-mart*




2024- yil yanvar-mart oylarida viloyatda jami nikohdan ajrashganlarning **46,9** % i farzandsiz, **27,5** % i bitta farzand bilan va **25,6** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

---

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi




Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2024- yilning yanvar-mart oylarida erkaklar uchun **36,0** yoshni, ayollar uchun **33,0** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **29** yoshlilarga to‘g‘ri kelgan, y’ani jami nikohdan ajrashganlarning **5,8** % ini tashkil etgan.

## Buxoro viloyati bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

*2024- yil yanvar-mart*

### Ko‘chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, *kishi*

| Hudud | Soni | Koeffitsiyent |
|---|---|---|
| Buxoro sh. | 688 | 9,4 ‰ |
| Kogon sh. | 154 | 9,6 ‰ |
| Olot | 47 | 1,8 ‰ |
| Buxoro | 329 | 7,4 ‰ |
| Vobkent | 73 | 2,0 ‰ |
| G‘ijduvon | 200 | 2,5 ‰ |
| Kogon | 215 | 10,2 ‰ |
| Qorako‘l | 53 | 1,2 ‰ |
| Qorovulbozor | 94 | 19,0 ‰ |
| Peshku | 50 | 1,5 ‰ |
| Romitan | 37 | 1,0 ‰ |
| Jondor | 86 | 1,9 ‰ |
| Shofirkon | 114 | 2,5 ‰ |

Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish eng yuqori Buxoro shahrida **688** kishi, Buxoro tumanida **329** kishi, Kogon tumanida **215** kishi, eng kam ko‘rsatkich Romitan tumanida **37** kishi, Olot tumanida **47** kishi va Peshku tumanida **50** kishini tashkil etgan.

### Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Qorovulbozor | 19,0 ‰ |
| Kogon | 10,2 ‰ |
| Kogon sh. | 9,6 ‰ |
| Buxoro sh. | 9,4 ‰ |
| Buxoro | 7,4 ‰ |

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **19,0** promille, Kogon tumani **10,2** promille, Kogon shahri **9,6** promille, Buxoro shahri **9,4** promille va Buxoro tumani **7,4** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Romitan | 1,0 ‰ |
| Qorako‘l | 1,2 ‰ |
| Olot | 1,8 ‰ |
| Jondor | 1,9 ‰ |
| Vobkent | 2,0 ‰ |

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Romitan tumani **1,0** promille, Qorako‘l tumani **1,2** promille, Olot tumani **1,8** promille, Jondor tumani **1,9** promille va Vobkent tumani **2,0** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming kishi*




**O‘sish sur’ati,**
*% da*




**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

**Erkaklar** | **Ayollar**



***42,9 %***



***57,1 %***

**0,9** *ming kishi* | **1,2** *ming kishi*

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**

**Shahar** | **Qishloq**



***61,9 %***



***38,1 %***

**1,3** *ming kishi* | **0,8** *ming kishi*

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*kishi/ulushi*

| | Erkaklar | | Ayollar | |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 327 | 41,5 % | 58,5 % | 461 |
| Fevral | 317 | 42,9 % | 57,1 % | 422 |
| Mart | 276 | 45,0 % | 55,0 % | 337 |








2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘chib kelganlar soni **2,1** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **0,9** ming kishini, ayollar soni **1,2** ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida **1,3** ming kishini, qishloq joylarida **0,8** ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan ko‘chib kelganlar soni yanvar oyida **788** nafar aksincha, eng kam ko‘chib kelganlar esa mart oyida **613** nafarni tashkil qilgan.

# Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

*2024- yil yanvar-mart*

## Ko‘chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, *kishi*




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish eng yuqori Buxoro shahrida **599** kishi, G‘ijduvon tumanida **352** kishi, Shofirkon tumanuda **289** kishi, eng kam ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida **46** kishi, Peshku tumanida **96** kishi va Romitan tumanida **97** kishini tashkil etgan.

## Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Qorovulbozor | 13,3 ‰ |
| Buxoro sh. | 9,1 ‰ |
| Kogon sh. | 8,1 ‰ |
| Kogon | 8,0 ‰ |
| Shofirkon | 7,0 ‰ |

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Qorovulbozor tumani **13,3** promille, Buxoro shahri **9,1** promille, Kogon shahri **8,1** promille, Kogon tumani **8,0** promille va Shofirkon tumani **7,0** promilleni tashkil etgan.

## Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Romitan | 2,9 ‰ |
| Jondor | 3,7 ‰ |
| Peshku | 4,0 ‰ |
| Qorako‘l | 4,7 ‰ |
| Olot | 5,2 ‰ |

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past Romitan tumani **2,9** promille, Jondor tumani **3,7** promille, Peshku tumani **4,0** promille, Qorako‘l tumani **4,7** promille va Olot tumani **5,2** promilleni tashkil etgan.

## Buxoro viloyati hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

*2024- yil yanvar-mart*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming kishi*




**O‘sish sur’ati,**
*% da*




**Jinslar kesimida taqsimlanishi**




**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**




**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*kishi/ulushi*




2024- yil yanvar-mart oylarida ko‘chib ketganlar soni **3,0** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **1,4** ming kishini, ayollar soni **1,6** ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida **1,7** ming kishini, qishloq joylarida **1,3** ming kishini tashkil etdi.

Hisobot choragida eng ko‘p qayd etilgan ko‘chib ketganlar soni yanvar oyida **1123** nafar aksincha, eng kam ko‘chib ketganlar esa mart oyida **824** nafarni tashkil etgan.

**Doimiy aholi –** ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**
*Tel: 71 230-83-16, 65 223-83-37*